

KARL POPPER IJODIDA INSON QADRI MASALSINING YORITILISHI

Sherboboev Muxriddin Azimmurod o‘g‘li,

Toshkent davlat stomatologiya instituti assistenti

Inson qadri masalasi ijtimoiy taraqqiyot uchun eng muhim omillardan sanaladi. Falsafa tarixida inson qadri masalasiga yondashuvlar juda ko‘p bo‘lgan va hozirgacha davom etmoqda. Inson qadri ijtimoiy hayotda aks etishi uchun nimalar qilish kerak degan savolga turli ta‘limotlar turlicha javob bergan. Shu kabi qarashlardan biri Popper ijodida aks etgan bo‘lib u o‘z qarashlari orqali inson qadri va komoloti masalasini ochib berishga harakat qilgan.

Popper falsafasidagi insonni o‘rnini aniqlashda biz albatta, “Ochiq jamiyat va uning dushmanlari” nomli asarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Popperring bu asarida g‘ayri insoniy har qanday jamiyat va boshqaruv shakli qoralangan bo‘lib, hatto siyosiy tizim sifatida davlat manfaatlaridan jamiyat manfaatlari ustun qo‘yilgan.

Popper qarashlaridagi birgina va yagona masala jamiyatda adolatli boshqaruv masalasi bo‘lgan. U buni demokratiya misolida ko‘rgan. Popper o‘z falsafasida “Ochiq jamiyat” ya‘ni inson qadri ulug‘lanadigan jamiyat deb demokratik jamiyatni tushunadi va bu orqali demokratiyaga bo‘lgan zaruratni e‘tirof etadi.

Demokratiya muhim - buni barchamiz o‘z qalbimiz bilan his qilishimiz lozim. Demokratiyada hukumatni gullab yashnashini kuzatish, siyosiy a‘zolari ishga olish va ishdan bo‘shatish, jamiyat qanday adolat ustida boshqarilayotgani haqida xulosa chiqarish uchun yetarlicha asoslar mavjud. Va bu hokimiyat ommaga berilgan va bunda oligarxlar, aristokratlar va diktatorlar inkor etiladi. Demokratiya hal qiladigan muammo huquqlar, erkinliklar va hattoki hokimiyatga eng yaxshi rahbarlar kelishini ta‘minlashdir [1.407].

Poperning insonni ulug‘lash masalasi demokratiya bilan aks etibgina qolmay uning falsafiy mushohadasi ham insoniy qadriyatlarga yo‘g‘rilgandir. U insonlar o‘rtasidagi aqliy tafovutni qadriyatli yondashuv sifatida baholaydi. Popper falsafaga boshqacha yondashadi. Biz bu fikrni isbotlash uchun “Hamma odamlar faylasufdir” degan Popper qarashlarini keltirishimiz mumkin. Bu g‘oya inson ongidagi salohiyatni ulug‘lashda o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Popper fikrida davom etib bazi insonlarning falsafiy mushohadasi chuqurroqligini ta‘kidlaydi. Ya‘ni Popper akademik faylasuflar guruhining ham mavjudligini ta‘kidlaydi. Popper akademik guruh faoliyatini tan olgan holda ularning jamiyat hayotidagi o‘rnini ta‘kidlaydi ammo, ularni mutloqlashtirish fikridan yiroq bo‘ladi. U shunday yozadi: “Men intellektual falsafiy elitaning mavjudligi nazariyasining muxolifiman”[2.9]. Popperdagi bu jihat tenglik nazariyasini ilgari suradi va shu orqali insonlar o‘rtasidagi qadrsizlik chegarasini buzadi.

Faylasufning yana bir aksiologik ta‘limoti bu insondagi xato qilish holatini oddiy tushinishidir. Bu g‘oyani u falsifikatsiya metodi orqali

tushuntiradi. Bu g'oya asosida insonga xos xatolar o'z o'rnida jaiyat taraqqiyotining poydevori deb qaraladi. Popper inson xato qilishi bu taraqqiyotning boydevori deb atadi. Inson odatda xato qilishdan qo'rqadi va bu juda ko'p holatlarda pessimistik qarashga olib keladi. Bunday holat esa insonni o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishiga to'siq bo'lib qoladi. Bekon aytgan edi inson ongi "qiyshiq ko'zguga" o'xshaydi. Popper esa shu qiyshiq ko'zgu inson foydasiga ishlashini aytadi. Bu esa insonga ko'tarinki rux beradi va jamiyatga ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

Insondagi erkinlik masalasi Popper uchun muhim qadriyat bo'lgan shu sababli u boshqa ko'plab falsafiy qarashlariga qarshi chiqishiga to'g'ri kelgan. U inson erkinligini cheklovchi har qanday omilga qarshi jiddiy kurashgan va uni tanqidiy tahlil qilgan. Zamonaviy falsafada mavjud bo'lgan tanqidiy ratsionalizm falsafasi orqali Popper siyosiy maydonlarda insonning o'rnini himoya qilishga uringan va insonning tanlov erkinligini qadriyatga aylantirish tarafdori bo'lgan. Uning bu qarashlari saylov tizimini ochiq tashkil qilish orqali amalga oshirilishi aytilgan. Popper mojaritar saylov orqali shaxs erkinliklari va iroda erkinligi ta'minlanishi lozim deydi. Bu esa bugungi kunda demokratik davlatlarda qo'llanib kelinmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham shu saylov tizimidan foydalaniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosiy sohadagi ishlar Popper g'oyalari bilan ayniydir. Joriy yil boshida mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev keng jamoatchilikning fikrlariga tayangan holda, Yangi - 2022

yilni mamlakatimizda „Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili“ deb e‘lon qilishni taklif qildi va bu hamyurtlarimiz tomonidan qo‘llab quvatlandi. Bu g‘oya negizida “Inson qadrini ulug‘lash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash”[3] masalasi yotardi.

Bu uchun esa asosiy lokomotiv vazifasini mahalla instituti bajarishi belgilab qo‘yildi. Mahalla orqali inson erkin va farovonligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha dasturlar ishlab chiqildi. Hozirgi ijtimoiy- siyosiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki inson qadri masalasi bugungi kun nafasiga aylandi. Joylarda qilinayotgan ishlar insonni imkoniyatlaridan foydalanish va uni qo‘llab quvatlashga qaratilgan.

Xulosa qilib shun ta‘kidlash mumkinki, zamonaviy demokratiyadagi inson qadri masalasi har bir mamlakat fuqarolari uchun asosiy qadriyat sanaladi. Bu kabi g‘oyalar tarixida chuqur iz qoldirgan Karl Popper qarashlari aksiologik mazmunga ega. Uni o‘rganish va jamiyatda aks ettirish ijtimoiy – siyosiy taraqqiyotga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Қаранг: Popper K.R.. The Open Society and Its Enemies.—London, «Soros Foundation», 1964. –P. 407.
2. Поппер Карл Р. Все люди — философы: Как я понимаю философию; Иммануил Кант — философ Просвещения. / Пер. с нем., вступи. статьи и примеч. И. З. Шишкова. Изд. 2-е, стереотипное. — М.: Едиториал УРСС, 2003. — 9 с
3. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/12/31/2022-year/>